
Nutqiy muloqot odobini ifodalovchi maqollar (o'zbek va ingliz tillari misolida)

Muxtashamova Parvina Zahitovna
a7191987@gmail.com

*Teacher of the Faculty English 3, Department of
Theoretical aspects of English № 3,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti*

Annotatsiya *Mazkur maqolada nutqiy muloqot odobi va uning axloqiy-me'yoriy ahamiyati o'zbek hamda ingliz tillari paremiologik birliklari asosida qiyosiy jihatdan batafsil tahlil qilinadi. Tadqiqot lingvomadaniy, pragmatik va aksiologik yondashuvlarga tayangan holda nutq madaniyati, kommunikativ xulq-atvor, so'z tanlash mas'uliyati hamda muloqot muhitining shaxs axloqiy qiyofasini shakllantirishdagi o'rnini yoritishga qaratilgan. O'zbek xalq paremiologiyasida nutqiy odob, ehtiyotkorlik, suhbatdosh tanlash, so'zning ijobiy va salbiy ta'siri, aytilgan so'zning qaytarilmasligi kabi tushunchalar obrazli va konseptual birliklar orqali ifodalanadi. Ushbu paremiologik birliklar ingliz tilidagi semantik va funksional analoglar bilan qiyoslanib, har ikki tilda nutqiy muloqotga nisbatan umumiy axloqiy qarashlar mavjudligi aniqlanadi. Tahlil jarayonida so'zning shaxs ijtimoiy mavqeiga, axloqiy qiyofasiga va kommunikativ muvaffaqiyatiga ta'siri, shuningdek, nutqiy xatolarning ijtimoiy va madaniy oqibatlarini ochib beriladi. Tadqiqot natijalari nutqiy muloqot odobi har ikki til va madaniyatda muhim axloqiy qadriyat sifatida qaralishini, biroq uning ifoda vositalari, metaforik tasvirlar va baholash mezonlarida milliy-madaniy xususiyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Maqolada paremiologik birliklar shaxsning axloqiy kamoloti, ijtimoiy moslashuvi va nutqiy kompetensiyasini shakllantiruvchi muhim tarbiyaviy vosita sifatida asoslanadi.*

Kalit so'zlar *Nutqiy muloqot odobi, paremiologiya, nutq madaniyati, kommunikativ xulq, o'zbek va ingliz maqollari, lingvomadaniyat*

Пословицы, отражающие речевой этикет (на материале узбекского и английского языков)

Мухташамова Парвина Захитовна
a7191987@gmail.com

*Преподаватель факультета «Английский
язык – 3», Кафедра теоретических
аспектов английского языка № 3,
Узбекский государственный университет
мировых языков*

Аннотация *В статье проводится подробный сравнительный анализ речевого этикета и его этико-нормативного значения на материале паремиологических единиц узбекского и английского языков. Исследование основано на лингвокультурологическом, прагматическом и аксиологическом подходах и направлено на изучение культуры речи, коммуникативного поведения, ответственности за выбор слова, а также роли коммуникативной среды в формировании нравственного облика личности. В узбекской паремиологии такие понятия, как речевой этикет, осторожность, выбор собеседника, положительное и отрицательное воздействие слова, а также необратимость сказанного, выражаются посредством образных и*

концептуальных единиц. Данные паремиологические единицы сопоставляются с их семантическими и функциональными аналогами в английском языке, что позволяет выявить наличие общих нравственных представлений о речевом общении в обеих лингвокультурах. В ходе анализа раскрывается влияние речи на социальный статус, нравственный облик и коммуникативную успешность личности, а также социальные и культурные последствия коммуникативных ошибок. Результаты исследования показывают, что речевой этикет рассматривается в обеих языковых культурах как важная нравственная ценность, однако в средствах выражения, метафорической образности и оценочных критериях проявляются национально-культурные особенности. В статье обосновывается, что паремиологические единицы выступают значимым воспитательным механизмом, способствующим нравственному развитию, социальной адаптации и формированию коммуникативной компетенции личности.

Ключевые слова *Речевой этикет, паремиология, культура речи, коммуникативное поведение, узбекские и английские пословицы, лингвокультура*

Proverbs Expressing Speech Etiquette (A Case Study of the Uzbek and English Languages)

Muhtashamova Parvina Zakhitovna
a7191987@gmail.com
Teacher, Faculty of English 3, Department of
Theoretical Aspects of English No. 3,
Uzbekistan State World Languages University

Annotation *This article provides a detailed comparative analysis of speech etiquette and its ethical-normative significance based on paremiological units in the Uzbek and English languages. Relying on linguocultural, pragmatic, and axiological approaches, the study examines speech culture, communicative behavior, responsibility in word choice, and the role of the communicative environment in shaping an individual's moral character. In Uzbek paremiology, such concepts as speech etiquette, caution, interlocutor selection, the positive and negative impact of words, and the irreversibility of spoken speech are expressed through figurative and conceptual units. These paremiological expressions are compared with their semantic and functional analogues in English, revealing the existence of shared ethical views on verbal communication in both languages. The analysis highlights the influence of speech on an individual's social status, moral image, and communicative success, as well as the social and cultural consequences of communicative errors. The findings demonstrate that speech etiquette is regarded as an important moral value in both linguistic cultures; however, national and cultural specificities are evident in the means of expression, metaphorical imagery, and evaluative criteria. The article substantiates that paremiological units function as an essential educational mechanism contributing to moral development, social adaptation, and the formation of communicative competence.*

Keywords *Speech etiquette, paremiology, speech culture, communicative behavior, Uzbek and English proverbs, linguoculture*

Kirish

Hikmat ahlining qarashlariga ko'ra, agar inson shaxsida odob-axloq me'yorlari yetarli darajada namoyon bo'lmasa, bunday shaxs ijtimoiy muhitda qadsiz va e'tibordan chetda qoladi. Natijada, jamiyat a'zolari u bilan muloqot qilishdan tiyiladi, ijtimoiy munosabatlarda esa begonalashuv holati yuzaga keladi. Bunday shaxs faoliyati va xulq-atvori jamiyat tomonidan salbiy baholanib, unga nisbatan ijtimoiy masofa va rad etish munosabati shakllanadi. Shu sababli odobsiz va andishasiz kishilar ijtimoiy hayot jarayonida tanqid va tanbehga ko'proq duch kelib, shaxsiy erkinlik va ijtimoiy faollik imkoniyatlarining cheklanganini anglaydilar. Ularning samimiy munosabatlari va ijobiy hissiy ta'siri ko'pchilik ongida barqaror qadriyat sifatida qaror topmaydi.

Muloqot jarayonining asosiy subyekti inson hisoblanadi. Insonning tashqi ko'rinishi, lingvistik xulqi, diniy mansubligi, dunyoqarashi, maqsad va intilishlari, shuningdek, muammo va ijtimoiy munosabatlari asosan nutq orqali ifodalanadi. Shu bois nutqiy muloqot shaxsning ijtimoiy va madaniy qiyofasini belgilovchi muhim omil sanaladi.

Har bir shaxs nutqiy muloqot faoliyatida kommunikativ xatolarga yo'l qo'yishi mumkin. Ushbu holat ta'lim-tarbiya tizimi, jumladan, o'z-o'zini tarbiyalash mexanizmlarining ahamiyatini oshiradi. Mazkur jarayonlar muloqotdagi xatolarni minimallashtirish hamda nutq madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan. Bu jihatdan nutqiy muloqotda maqollardan foydalanish muhim lingvomadaniy va pragmatik vosita hisoblanadi.

Muloqot strategiyasini samarali tashkil etishda shaxsning ichki ishonchi, kommunikativ malakasi, dunyoqarashi va nutqiy ko'nikmalarining shakllanganlik darajasi asosiy mezon sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, rasmiy va ishbilarmonlik muloqotida, xizmat munosabatlari doirasida, shuningdek, ommaviy tadbir va marosimlarda nutqiy odob

qoidalariga amal qilish alohida ahamiyat kasb etadi.

Samimiy muloqot jarayonida maqollarning o'rinli va vaziyatga mos qo'llanishi nutqiy ta'sirchanlikni kuchaytiradi hamda so'z san'ati va kommunikativ kompetensiyaning yuqori darajada shakllanganini namoyon etadi.

Insoniy odob va odamiylik tamoyillariga asoslangan axloqiy tizimning muhim ustunlaridan biri nutq madaniyatiga rioya qilish, ya'ni so'zning o'rinli, muloyim va odob me'yorlari doirasida qo'llanishini ta'minlashdan iboratdir. Axloqiy qadriyatlar majmuasining yuqori pog'onasida turuvchi mutafakkirlarning ta'kidlashicha, inson kamoloti va bilimning yuksak darajalaridan biri chiroyli va ta'sirchan nutq sohibi bo'lish bilan belgilanadi. Bunday nutq tafakkur va aql manbalaridan oziqlanib, ma'naviy kamolot va saodat sari yetaklovchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur jarayonda so'zning estetik va ma'naviy qimmati alohida ahamiyat kasb etadi. Donolik va ma'rifat timsoli hisoblangan qadimgi yunon mutafakkirlarining qarashlariga ko'ra, til har bir aql sohibining fazilatlar xazinasi kaliti bo'lib, shaxsning bilim saviyasi va intellektual darajasi uning nutqi orqali namoyon bo'ladi. Shu bois insonning ilmiy va ma'naviy salohiyatini baholashda uning so'zlash madaniyati va nutqiy kompetensiyasi muhim mezon sifatida e'tirof etiladi (Usmonov, 1995; 27).

Xalq og'zaki ijodida nutqning ijobiy va salbiy pragmatik ta'sirini ifodalovchi paremiologik birliklar muhim o'rin egallaydi. Xususan, o'zbek tilidagi **“Til borki, bol keltiradi, til borki, balo keltiradi”** maqoli so'zning kommunikativ jarayondagi hal qiluvchi rolini konseptual tarzda aks ettiradi. Mazkur paremiologik birlikda nutqiy vositalarning o'rinli yoki noo'rin qo'llanishi inson faoliyati va ijtimoiy munosabatlarida turlicha natijalarga olib kelishi ta'kidlanadi (O'zbek xalq maqollari, 2012). Shu jihatdan, har bir so'zning muloqot

vaziyati va kommunikativ sharoitga mos holda tanlanishi nutqiy kompetensiyaning yuqori darajada shakllanganligini talab etadi (Avloniy, 1967).

Mazkur mazmun ingliz paremiologiyasida to'liq leksik ekvivalentga ega bo'lmasa-da, so'zning ijobiy va salbiy ta'sir kuchini ifodalovchi bir qator semantik va funksional analoglar orqali ifodalanadi. Jumladan, **"The tongue has the power of life and death"** maqolida so'zning konstruktiv va destruktiv oqibatlarga sabab bo'lishi ta'kidlanadi. **"A word spoken is past recalling"** paremiologik birligi aytilgan so'zning qaytarib bo'lmas oqibatlarga ega ekanligini ifodalasa, **"Loose lips sink ships"** iborasi noo'rin va mas'uliyatsiz nutqning jiddiy salbiy oqibatlarga olib kelishini ko'rsatadi. **"Speech is silver, silence is golden"** maqoli esa nutqiy faoliyatda vaziyatga mos sukut saqlash ham muhim kommunikativ strategiya ekanligini ifodalaydi (Arsentyeva, 1989; Teliya, 1999).

Mazkur paremiologik birliklar nutqning axloqiy, ijtimoiy va pragmatik ahamiyatini ochib berib, so'zning insoniy munosabatlar tizimidagi mas'uliyatli va ta'sirchan vosita ekanligini tasdiqlaydi (Apresyan & Apresyan, 1970; Bakirov, 2012).

Ingliz tilida mazkur maqolning to'liq leksik ekvivalenti mavjud bo'lmasa-da, nutqning ijobiy va salbiy pragmatik ta'sirini ifodalovchi bir qator funksional analoglar mavjud bo'lib, ular mazmunan o'zbek maqoli bilan mushtarakdir.

Donishmandlarning ta'kidlashicha, so'zning mazmuniy va estetik qiymatini nodon kishi to'laqonli anglay olmaydi. Chunki aql va idrokdan mahrum mavjudot shirinlikning lazzatini his eta olmagan kabi, nutqning ichki mohiyatini ham fahmlay olmaydi (Tolibiy, 1997; 250).

Aql egalari tafakkur tizimini ramziy tarzda tasvirlar ekan, aqlni hukmdorga, farosatni vazirga, nutqni esa qo'shin (sipoh)ga qiyoslaydilar. Zero, inson ongida paydo bo'lgan har qanday fikr avvalo aql orqali shakllanadi,

farosat uni baholaydi va tasdiqlaydi, nutq esa ushbu fikrni tashqi olamga yetkazuvchi asosiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Agar so'z kommunikativ vosita vazifasini bajarmaganida, inson qalbida yashiringan his-tuyg'ular, xususan, oshiq yuragidagi sirlar o'z manziliga — mahbub qulog'iga yetib borishi mushkul bo'lur edi. Shu ma'noda nutq insoniy munosabatlarni yuzaga chiqaruvchi va ularni tartibga soluvchi muhim ijtimoiy-madaniy mexanizm hisoblanadi.

"So'z lazzatini odami nodon bilmas, Nechunki asal lazzatini hayvon bilmas."

Ingliz tilidagi ma'no jihatdan mos ekvivalentlar:

1. **"A fool does not know the value of words."** Nodon kishi so'zning qadrini anglamaydi.
2. **"Wisdom appreciates words; ignorance ignores them."** So'zning lazzati faqat aql egasiga ayon.
3. **"Only the wise understand the sweetness of speech."** So'zning shirinligi aql bilan idrok etiladi.

O'zbek maqollarida aql, farosat va nutq o'rtasidagi ierarxik munosabat alohida ta'kidlanadi. Ingliz paremiologiyasida mazkur metaforik tuzilma bevosita saqlanmagan bo'lsa-da, nutqning tafakkur in'ikosi va fikrni yetkazuvchi vosita sifatidagi konseptual mazmuni ifodalovchi maqollar orqali ushbu g'oya bilvosita namoyon bo'ladi.

Inson o'zini salbiy xulq-atvor va ma'naviy jihatdan zararli shaxslar bilan muloqotdan cheklashi lozim, zero bunday suhbatlar inson ruhiyati va axloqiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Manbalarda ta'kidlanishicha, har qanday muloqot muayyan ta'sir kuchiga ega bo'lib, u shaxsning ichki dunyosi va ijtimoiy xulqiga bevosita ta'sir qiladi. Jumladan, ezgu va ma'rifatli kishilar bilan olib borilgan suhbat insonda ijobiy fazilatlarining shakllanishi va mustahkamlanishiga xizmat qilsa, salbiy xususiyatlarga ega shaxslar bilan muloqot turli muammolar va ma'naviy zo'riqishlarning ortishiga sabab bo'ladi.

Mazkur fikr o'zbek xalq paremiologiyasida "Qozonga yaqin yursang, qorasi yuqar" maqoli orqali umumlashtirilgan bo'lib, unda muloqot muhiti va suhbatdosh tanlashning shaxs kamolotidagi muhim o'rni yaqqol ifodalangan (O'zbek xalq maqollari, 2012; 74).

Bad company corrupts good morals.
Yomon suhbat inson axloqini buzadi.

You are known by the company you keep. Inson kimlar bilan yurishi orqali taniladi.

Mazkur ingliz maqollari ijtimoiy muhit va muloqotning shaxs axloqiy shakllanishidagi muhim rolini ifodalaydi. "**Bad company corrupts good morals**" maqolida salbiy suhbat va zararli muhit insonning axloqiy me'yorlariga putur yetkazishi ta'kidlanib, muloqotning tarbiyaviy va buzuvchi funksiyasi ochib beriladi. "**You are known by the company you keep**" maqoli esa shaxsning jamiyatdagi obro'si va ijtimoiy bahosi uning kimlar bilan muloqotda bo'lishi orqali shakllanishini ko'rsatadi.

Ushbu paremiologik birliklar nutqiy muloqot va ijtimoiy aloqalarning axloqiy xulq-atvoriga bevosita ta'sirini namoyon etib, mazmunan o'zbek tilidagi "**Qozonga yaqin yursang, qorasi yuqar**" maqoli bilan konseptual jihatdan mushtarakdir. Bu holat muloqot muhiti va suhbatdosh tanlash masalasi turli tillar va madaniyatlarda umumiy axloqiy qadriyat sifatida qaralishini tasdiqlaydi.

Sharq mutafakkirlarining qarashlariga ko'ra, muloqot jarayonida qo'llaniladigan so'zlar inson uchun doimo muhim ehtiyoj sanaladi va har bir fikrni ifodalashdan avval uni chuqur o'ylab, mulohaza bilan bayon etish zarur. Inson qaysi muhitda va qaysi vaziyatda bo'lmasin, agar o'z tilini nojo'ya va salbiy ifodalardan tiyib, o'ylangan va mas'uliyatli tarzda so'zlasa, bu holat unga ijobiy natija keltiradi.

Mazkur fikr xalq donishmandligi namunalari bo'lgan "**Avval o'yla – keyin so'yla**" hamda "**Aytilgan so'z – otilgan o'q**" kabi maqollarda umumlashtirilgan bo'lib, ularda so'zning qaytarilmasligi va nutqiy

mas'uliyatning yuqori darajada ekanligi ta'kidlanadi. Ushbu paremiologik birliklar nutqiy muloqotda ehtiyotkorlik va odobga rioya qilish zarurligini ifodalovchi muhim axloqiy-me'yoriy vositalar sifatida namoyon bo'ladi.

Ingliz xalqlarida ham nutqiy muloqotda ehtiyotkorlik va mas'uliyatli so'zlash zarurligini ifodalovchi maqollar keng qo'llanadi. Xususan, "**Think before you speak**" hamda "**A word spoken is past recalling**" kabi paremiologik birliklar o'ylamasdan aytilgan so'zning qaytarib bo'lmas oqibatlariga olib kelishini ta'kidlaydi.

Mazkur tadqiqot o'zbek va ingliz tillari paremiologik fondi asosida nutqiy muloqot odobining lingvomadaniy va axloqiy jihatlarini qiyosiy tahlil qilishga bag'ishlandi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, nutqiy muloqot insonning ijtimoiy mavqei, axloqiy qiyofasi va madaniy saviyasini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Xalq og'zaki ijodida aks etgan maqollar esa ushbu jarayonni tartibga soluvchi axloqiy-me'yoriy ko'rsatmalarni mujassamlashtirgan ixcham va ta'sirchan vositalardir.

O'zbek paremiologiyasida nutqning ijobiy va salbiy ta'siri, so'z mas'uliyati, ehtiyotkorlik, suhbatdosh tanlash hamda muloqot muhitining tarbiyaviy ahamiyati aniq va obrazli metaforalar orqali ifodalanadi. Ingliz paremiologiyasida esa mazkur g'oyalar ko'proq pragmatik va funksional yo'sinda, sabab-oqibat munosabatlari asosida namoyon bo'ladi. Bu holat har ikki til va madaniyatda nutqiy odobning umumiy axloqiy qadriyat sifatida qaralishini, biroq uning ifoda shakllarida milliy-madaniy xususiyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida nutqiy muloqotga oid maqollar nafaqat kommunikativ xulqni tartibga soluvchi vosita, balki shaxsning axloqiy kamoloti va ijtimoiy moslashuvini ta'minlovchi muhim tarbiyaviy mexanizm ekani aniqlandi. So'zning o'rinli yoki noo'rin qo'llanishi insoniy munosabatlarda ijobiy yoki salbiy oqibatlariga olib kelishi paremiologik birliklar orqali umumlashtirilgan holda ifodalanadi. Shu jihatdan, nutqiy muloqot odobini o'rganish va

targ'ib etish nafaqat lingvistik, balki pedagogik va madaniy jihatdan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek va ingliz tillaridagi nutqiy muloqot odobini ifodalovchi maqollar umumiy insoniy axloqiy qadriyatlarni aks ettirgan holda, har bir til va madaniyatga

xos bo'lgan konseptual va obrazli tafakkurni namoyon etadi. Ushbu tadqiqot natijalari paremiologiya, lingvomadaniyat va kommunikativ pragmatika sohalarida olib boriladigan keyingi ilmiy izlanishlar uchun nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Apresyan, T. Y., & Apresyan, Y. D. (1970). *On the study of semantic relations between words*. *Voprosy yazykoznaniya*, 2, 13–25.
2. Arsentyeva, E. F. (1989). *Phraseological units and national specificity of language*. Kazan State University Press.
3. Avloniy, A. (1967). *Guliston yoxud axloq* [Gulistan or morality]. Tashkent: O'qituvchi. (Original work published 1913).
4. Bakirov, B. (2012). *Lingvokulturologiya asoslari*. Tashkent: Fan.
5. Kövecses, Z. (2010). *Metaphor: A practical introduction* (2nd ed.). Oxford University Press.
6. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors we live by*. University of Chicago Press.
7. O'zbek xalq maqollari. (2012). Tashkent: Sharq.
8. Permyakov, G. L. (1988). *Osnovy strukturnoy paremiologii* [Foundations of structural paremiology]. Moscow: Nauka.
9. Teliya, V. N. (1999). *Russian phraseology: Semantic, pragmatic and linguocultural aspects*. Moscow: Languages of Russian Culture.
10. Tolibiy. (1997). *Mashriqzamin hikmatlar bo'stoni*. Tashkent: Ma'naviyat.
11. Usmonov, R. (1995). *Saodatnoma*. Tashkent: Fan.